

O'ZBEK BADIY ADABIYOTIDA MILLAT VA MILLIYAT  
TALQINI

Boymuratova Hulkar Mamaraim qizi

Termiz davlat universiteti magistranti

[hulkarboymuratova@gmail.com](mailto:hulkarboymuratova@gmail.com)

<https://doi.org/10.5281/zenodo.20341963>

**Annotatsiya.** Ushbu maqolada badiiy adabiyotda millat va milliyat tushunchalarining aks etishi, adabiy turning turli janrlarda millat va milliyat tushunchalarining turli ko'rinishlari talqin etilib, asarlar misolida tahlilga tortilgan. G'afur G'ulomning "Sog'inish" she'ri, S.Ahmadning "Ufq" trilogiyasi, "Qorako'z majnun" hikoyasi, T.Murodning "Yulduzlar mangu yonadi" qissalari tahlil qilingan.

**Kalit so'zlar:** Millat, milliyat, badiiy adabiyot, adabiy tur, roman, hikoya, qissa.

**Abstract.** This article analyzes the reflection of the concepts of nation and nationality in fiction, interpreting their various manifestations across different literary genres. The works examined include G'afur G'ulom's poem "Sog'inish", Said Ahmad's "Ufq" trilogy, the story "Qorako'z Majnun", and Tog'ay Murod's novella "Yulduzlar Mangu Yonadi"

**Keywords:** Nation, national identity, fiction, literary genre, novel, short story, novella.

Jahon adabiyotlarida ham ona mehri , onaning sevgisi shunchalar mukammal ko'rsatiladiki, bu o'zbek adabiyoti uchun ham xos , ammo otaning farziga mehri doim yashirin bo'lib kelgan . O'zbek adabiyotida shoir G'.G'ulom " Sog'inich " she'ri orqali o'zbek otasining sof va samimiy sevgisini barcha uchun tanish bo'lgan otaning yig'ma obrazini yaratdi. Milliy adabiyotimizda hali "o'zbek otasi" degan tushuncha asosida bir yaxlit asar yaratilmagan edi."Sog'inich " she'rda urushga ketgan farzandini so'g'ingan ota uni umid bilan kutishi holati tasvirlangan .Ota kechagi kunday farzandini qachon " anjir tugab , qovun g'arq pishgan " pallada kuzatganini ham eslaydi. Farzandining urushga ketishini o'zbek xalqiga mos holda ulg'aygan yigit kabi tasvirlarkan mardlik va g'urur unga meros ekanini ta'kidlaydi.Xalqimiz doim o'g'il-qizlarini mard , jasur , o'z so'zidan qaytmas, tanti , or-nomusli qilib o'stirgan . Bunga " Shiroq" va " To'maris" afsona va rivoyatlari ham misol bo'la oladi. She'rdagi yana bir milliylik borki , " Kechqurun osh suzsak bir nasiba kam" jumllarida o'z ifodasini topgan . Shoir birgina jumllarda katta ma'noni tushuntirgan . Har bir tirik mavjudodning rizqi va nasibasi bo'ladi, Bu yerda nasibasi bo'lgan o'g'ilning o'rni bilingani aytilmoqda , chunki o'zbek millatiga xos bo'lgan dasturxon boshida bir oila bo'lib o'tirishlik milliy odatlarimizdan biridir. Yana bir misra borki , " O'rog'-u gulqaychi, istak ko'tarib, Hovrimni bosishga boqqa jo'nadim." millatimizning mehnatsevar xalq ekanini ko'rsatib bergan . Hayot davom etishi, inson umidini yo'qotmasligi tushunchalari she'r so'nggiga qadar davom etgan.Akademik Naim Karimov aytganidek, "Sog'inish " she'ri G'afur G'ulom lirikasining eng yuksak namunalaridan biriga aylangan, "Sog'inish" falsafiy she'r darajasiga ko'tarilgan<sup>1</sup>. Nasrimizda ham o'zbek otasining obrazi juda ta'sirli qilib berilgan . Bunga misol qilib, Said Ahmadning " Ufq " trilogiyasining birinchi kitobi " Qirq besh kun " da Ikromjon va Tursunboy obrazlarida ota va o'g'il munosabatlari ko'rsatilgan .

<sup>1</sup> Naim Karimov.G'afur G'ulom .G'afur G'ulom nomidagi nashriyot- matbaa ijodiy uyi.Toshkent-2003,32-bet

Agar G'afur G'ulomning "Sog'inish" she'rida urushga ketgan farzandini sog'inish bilan birgalikda undan tuyyotgan otalik g'urur ko'rsatilsa, buning aksini "Qirq besh kun" da ko'rish mumkin. Asar boshida Ikromjon va Jannat xolaning farzandlari erta nobud bo'lishi va keyingi tug'ilgan o'g'ilga Tursunboy deb ism qo'yishida millatimizga xos bo'lgan odatlardan biri; farzand tirik qolishi uchun tursin, yashab ketsin degan ma'nodagi qarash ifoda etilgan. Hamma ota – onalar kabi Ikromjon va Jannat xola Tursunboyni o'zi yemay yedirib, o'zi kiymay kiydirganlardan edi. Barcha orzu havasini shu farzandida ko'rishni istardi, biroq urush bu orzularni chippakka chiqargan edi. Tursunboy urushdan qochgan, vatanini, xalqini va ota – onasini yuzini shuvut qilgan edi. Otasi xalq ichida g'urur bilan yurish o'rniga uyatdan cho'lga chiqib ketadi. Kimsasiz qamishlar ichida moxovlardek yashayotgan Tursunboyni ko'rgan ota uni otib tashlaydi. Said Ahmad shu o'rinda o'zbek xalqiga xos bo'lgan g'ururni erkaklik or-nomusni birinchi o'ringa qo'ygan bo'lsa ajab emas, lekin bu asarning homaki nusxasini o'qib ko'rgan Abdulla Qahhor "o'zbek otasini farzand qotili" qilmaslikni maslahat berdi. Said Ahmad shu yeriga birgini so'zni "hayriyat tegmadi" jumlasini kiritib, ota baribir ota ekanligini yana bir bor isbot qiladi. Adabiyotshunos olim Umarali Normatov, asarni adabiy jamoatchilik ham iliq qarshi olgani, bundan ilhomlangan adib trilogiyaning "Qirq besh kun", "Ufq bo'sag'asida" kitoblari ustida ilhom bilan ijodiy ishlarni davom ettirgani, har uch kitob XX asr miyonasidagi millat tarixining yorqin ko'zgusi sifatida adabiyotimiz tarixida munosib o'rin egallaganini ta'kidlab o'tgandilar.<sup>2</sup> Olimning bu fikriga qo'shilgan holda shuni ham eslatib o'tish joizki, Said Ahmad nafaqat bu romani bilan balkida, o'zining achchiq, kinoyaga boy kichik hikoyalarida ham badiiy adabiyotning milliy o'ziga xos jihatlarini ochib bera olgan ijodkordir. Misol qilib, uning "Qorako'z majnun" hikoyasini olsak, Hikoya boshlanishidanoq epigrafi e'tiborni tortadi. Epigrafdagi "Qur'oni karim"dan "Baqara" surasidan va hadisi sharifdan ikki xil mazmundagi jumalalar keltirilgan. Birida dindan qaytgan do'zaxiy bo'lishi, ikkinchisida jannatga kiradigan hayvonlar orasida vafodorit ham bo'lishi aytilgan. Hikoyaning bosh qahramoni Saodat ayaning Allohga iltijosi bilan boshlanib, qishloq hayoti va Saodat ayaning tasviri bilan davom etgan. So'ngra hikoyaning asl mazmunini ochib beradigan qismi keladi. Oltmishinchi yillarda armiyaga ketib, o'sha yoqlarda qolib ketgan o'g'li Bo'rivoy va uning to'satdan topilishi voqealari bayoni ketar ekan, Bo'rivoyning armiyadan qaytmasdan o'sha yoqlardagi xristian qiziga oshiq bo'lgani, qizning otasi boshqa dindagi odamga qizini bermasligini aytganda, qiz Bo'rivoyni o'z diniga kirishga ko'ndirishi, cho'qinishi, olis yurtlarda qolib ota-onasi, aka-singillarini unutishi va o'z ona tilini ham unutishi millatimizda Vatanga sadoqatning poymol bo'lishi "milliy fojia" ekanligidan dalolatdir. Hikoya boshidagi keltirilgan suraning ma'nosini kitobxon ayni shu payt anglab yetadi. O'z dinidan, o'z tilidan voz kechganligi va o'z jigarlarini tanimas darajaga yetganligini o'qib turib inson har narsadan voz kechsada o'zligidan qanday kechishi mumkinligiga ajablanadi. Eng asosiysi, farzanddan kutilgan vafo, sadoqat, o'zlikni anglash farzandda emas itda bo'lishi ham achinarli holat. Saodat ayaning o'limidan so'ng Qorako'zga og'ir bo'ladi, hikoya so'nggida kampirning radioga yozilgan ovozini eshitib hursand bo'lib hurgan itni uyqusidan bezovta bo'lgan odamlardan biri otib o'ldiradi, Qorako'z shunda ham boshini ovoz eshitilgan tomonga qaratib "cho'zilib qoladi". Bo'rivoyda bo'lmagan sadoqat itda bor edi. Said Ahmad

<sup>2</sup> Umarali Normatov. Bedorlikda o'tgan umr. "O'zbekiston adabiyoti va san'ati" gazetasi, 2010-yil 48-soni

ijodida milliy g'urur, milliy qadriyatlar va zamonaviylik uzviy bog'liq holda tasvirlangan. Bu so'zimiz isboti sifatida, o'zbek sahnasidan halu hanuz tushmay keladigan, tomoshabinlar uchun yod bo'lib ketgan "Kelinlar qo'zg'oloni" dramasi o'zbek xalqining azal – azaldan singib ketgan ko'p farzandli bo'lib bir uyda istiqomat qilishini, bir dasturxonadan ovqatlanishini, hammaning topgan pullari bir joyda jam bo'lishini, oilaning bir boshi (odatda ota shunday vazifada bo'ladi) Farmonbibining ro'li qanchalik muhim ekanligi drama oxirida juda ta'sirli qilib, haqiqiy o'zbek oilasining hayotini ko'rsatib beradi. Buning bari adibning mulohazakor va dunyoqarashi kengligidan dalolatdir.

O'zbek adabiyotining yana bir vakili borki, uning asarlarini o'qigan odamning hayoliga birinchi navbatda xalq dostonlari, xalq qo'shiqlari keladi, sababi uning asarlarini o'qib turib o'zbek millati, milliylikimiz yodimizga tushadi. Bu ijodkor inson Tog'ay Muroddir. Adibning "Yulduzlar mangu yonadi" qissasi va undagi qahramonlarning xarakteri misol qilib, bosh qahramon Bo'ri polvon obrazini ko'rib o'tsak. Tog'ay Murod qahramonlariga ism tanlaganda ham sinchikovlik bilan yondashganini ko'rishimiz mumkin. Bo'ri turkiy xalqlarda kuch- qudrat, adolat ramzi bo'lib kelgan balki shuning uchun ham asar qahramoniga bo'ri kabi mardlik, so'zidan qaytmaslik, adolatli bo'lgan Bo'ri polvon deb nom qo'yganidir. Bo'ri polvon yolg'onni va hiyonatni kechirolmaydi, bu jihatlari millatimizning ko'zgusi misol ko'rsatib berilgan. Bo'ri polvonning do'sti Nasim polvon do'stiga hiyonat qilganligi (asarda Bo'ri polvonning sevgan qiziga do'sti Nasim polvon uylanadi) umr bo'yi do'stining hiyonatini kechirmasligiga sabab bo'ladi. Qissa davomida Bo'ri polvonning adolatini ham ko'rishimiz mumkin, chunki kurashga taqdir taqazosi bilan o'g'li Tilovberdi polvon bilan do'sti Nasim polvonning o'g'li Abray polvon kurashadi. Shu jarayonda Tilovberdi polvon Abray polvonni odamlar ustiga yiqitgani uchun kurash halol emas deb Bo'ri polvon qaytadan kurashtiradi va ikkinchi kurashda Tilovberdi yengiladi, lekin asar oxirida Bo'ri polvonning shu jumlasida asardagi milliy ruhni yanada oshirgan "Yulduzim hali yonadi! Davralarim hali davom etadi! Nevaralarim davralarda – Yo bobomning piri! – deya ayqirib – ayqirib olisha beradi! Yulduzim mangu yonadi".<sup>3</sup> Bo'ri polvon umidini so'ndirmaydi, yulduzini so'ndirmaydi, bir kun kelib nevaralarning ham yulduzi yonishiga ishonadi, shu orqali xalqimizga xos bo'lgan milliylikimiz ufurib turadi. Qissadagi Bo'ri polvon or-nomus uchun kurashadigan polvonlardan. Kurash maydoniga mol-dunyo uchun, sovrin uchun tushmaydi, or-nomusi, erkaklik g'ururi uchun tushadi. Qizlaridan keyin o'g'il ko'rgandagi hursandchiligi ham o'z orzularini davomchisi Tilovberdi polvonda ko'rishni hohlagan. "Yulduzlar mangu yonadi" asarida kurash millatimizdagi erkaklarning qanchalik adolatli, g'ururli, mard va jasur bo'lib tarbiya topishini ham ko'rsatib o'tgan. Ushbu asar orqali dunyoga "olish", "kurash", "halol", "harom" tushunchalari keng yoyilganligi milliy adabiyotimizning yutug'idir. Bu asarning tilida ham millatimiz ruhi ochib berilgan. Tili sodda va ravon bo'libgina qolmay, qishloq hayoti badiiy bo'yoqlarsiz tasvirlangandek tabiiy. O'zbekiston Qahramoni Said Ahmad adib haqida iliq fikrlar bildirar ekan "Tog'ay Murod qissalarini o'qir ekanman, har gal yangi bir yozuvchini ko'rgandek bo'laman. U kechagi hammani qoyil qoldirgan "Yulduzlar mangu yonadi" yoki "Ot kishnagan oqshom" qissalarini yozgan Tog'ayga o'xshamaydi. "Oydinda yugan odamlar "ni boshqa Tog'ay yozgan deb o'ylaysiz. Ha, uning asarlari sira bir-birini takrorlamaydi"<sup>4</sup>

<sup>3</sup> Tog'at Murod. Yulduzlar mangu yonadi. "Nurafshon – kitob ta'minot". Toshkent, 2022, 141-bet

<sup>4</sup> Tog'ay Murod xirgoyilari. Azim Ro'ziyev. Tog'ay Murod chizgan suratlar. www.ziyouz.com kutubxonasi

deya Tog'ay Murod asarlariga yuksak baho bergan . Ammo adib Said Ahmad bir joyda adashgan deb o'ylayman , Tog'ay Murod asarlarining xalqona yozilganligi bir-biriga ipsiz bog'lagandek, ijodkor uslubini ko'rsatib ham beradi. Adibning davlat mukofotiga sazovor bo'lgan asarlaridan biri " Otamdan qolgan dalalar " da mehnatsevar o'zbek xalqining uch avlod vakillari taqdirida millatning ayanchli qismati ko'rsatib berilgan .Ayniqsa, Dehqonqul va uning ayoli obrazlarida bu yaqqol namoyon bo'lgan. Dehqonqul sodda o'zbek xalqining yig'ma obrazi bo'lsa, uning ayoli barcha qiyinchilik va horliklarga chidab oxirida ustiga kerosin sepib o'zini joniga qasd qilmoqchi bo'lgan butun o'zbek ayollarining o'sha davrdagi bir badiiy ko'rinishi xolos. Ammo yozuvchi asarda Dehqonqul ayolini shifoxonaga olib borganida tumanda bu kabi hodisalar yetti yuzga yaqin ekanligini qistirib o'tadi. Bu bilan ijodkor millatning sabr- bardoshi to'lib borganini ifodalashni maqsad qilgan bo'lsa ajab emas. Adabiyotshunos olimimiz Dilmurod Quronovning , " Otamdan qolgan dalalar " – uzoq yillar yig'ilgan dardning misoli vulqonday otilishi, mustamlaka bilan xayrlashayotgan xalqning yig'i – yo'qlovi ." <sup>5</sup> Kelajak o'z –o'zidan bunyod bo'lmasligining , millat osonlikcha millat bo'lib qolmasligining yana bir isboti " Otamdan qolgan dalalar"da badiiylashtirilgan . Tog'ay Murodning yana bir asari " Oydinda yurgan odamlar" dagi Qoplonbek va Oymomo obrazlarida ham badiiy adabiyotning yetuk namunaviy xarakterini ochib bergan asar hisoblanadi. Qoplonbek va Oymomo bir-birini sevgan ammo hayotdan befarzand o'tgan sodda xalq vakillari edi. Bu ikki qahramonda ham insonlarga yaxshilik qilish va ularning ko'ngliga ozor bermaslik, taqdirlarida nima bo'lsa ham sabr bilan ko'nikib yashash hislatlari bor edi.Qoplonbek va Oymomo farzand ko'rishmasa ham hech kimga turmushidan nolimadi , hech kimga dard-u hasrat qilmadilar. Ular bir-birlariga suyandi, bir-biridan najot topdilar.Asar orqali oilaning muqaddas , o'zaro hurmat, vafo, sadoqat har narsadan ustun ekanligi ifodalangan. Bundan tashqari, asarda milliy qadriyatlarimiz ham xususan, to'y marosimlaridan bo'lgan " kampiro'ldi" , " soch siypatar" , " qo'l ushlata" , " it irillar" kabi milliy urf-odatlarimiz hamda milliy bayramimiz bo'lgan Navro'z bayramining yaratilishi bilan bog'liq afsona asarda o'z aksini topgan . Oymomoning tushiga kirgan xalq o'yinlaridan birini yozuvchi shunchaki aytib o'tmasdan o'yinning qanday o'ynalishi haqida ham ma'lumot berib o'tgan . Xalqimizda farzand tilab pir manzilgohlariga borish an'ana tusiga kirgan , bu hatto " Alpomish " xalq dostonida ham bor , yozuvchi Qoplonbek va Oymomoni So'fi Olloyor manzilgohiga yuboradi. Tog'ay Murod So'fi Olloyor haqidagi afsona va rivoyatlarni ham keltirib o'tadi. .Bir so'z bilan aytganda, Tog'ay Murod asarlarida xalq dardi kuylanadi, xalq hayoti ochiq oydin adabiyot ixlosmandlariga taqdim etiladi. Balki shuning uchun ham asarlari millat ko'zgusi deya sharaflanar. " Tog'ay Murod yaratgan obrazlar juda ta'sirchan , esda qolarli , yorqin ekanining boisi yozuvchining " ijod qilish san'ati " noyobligida . Badiiy obrazlar poetikasi til " ustiga " quriladi: Tog'ay Murod har bir obrazni o'ziga xos til , xalq og'zaki ijodiga xos ruhiyat va umuminsoniy tuyg'ular bilan ta'minlay olgan .<sup>6</sup> " Darhaqiqat , Tog'ay Murod asarlaridagi milliy o'ziga xoslikni ta'minlaydigan xususiyatlardan biri ham til va undagi sheva xususiyatlari , surxon vohasini tasvirlashda uning shevasi boshqa hududlarda takrorlanmas surxon zaminini kitobxon ko'z oldiga keltirishga yanada yordam beradi.

<sup>5</sup> Dilmurod Quronov .Qalblarni larzaga solgan xirgoyi ."Hurriyat" gazetasi ,2007

<sup>6</sup> Z.Suvonov . Tog'ay Murod nasrida obrazlar poetikasi: falsafa fanlari bo'yicha falsafa doktori ilmiy darajasini olish uchun yozilgan dissertatsiya . Toshkent-2019 14-bet

Xulosa. Shuni tushunishimiz mumkinki, badiiy adabiyotda millat va milliyat tushunchalari jadidlar davridan so'ng o'zining tub ma'no qatlamini kengaytirdi va yangidan yangi ma'no qatlamlariga ega bo'ldi. Xususan, milliy o'zlikni anglash, o'z qarashlari, o'ziga xosligini tushunib yetishda badiiy adabiyot eng yaxshi so'zlar, estetik g'oyalar bilan ushbu tushunchalarni yangitdan boyitdi.

**Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. Куронов, Д., Мамажонов, З., Шералиева М. Адабиётшунослик луғати.-Тошкент.: Академнашр, 2013, -Б.220.
2. Naim Karimov. G'afur G'ulom .G'afur G'ulom nomidagi nashriyot- matbaa ijodiy uyi. Toshkent-2003, 32-bet
3. Umarali Normatov. Bedorlikda o'tgan umr. " O'zbekiston adabiyoti va s,an'ati" gazetasi, 2010-yil 48-soni
4. Tog'at Murod. Yulduzlar mangu yonadi. " Nurafshon – kitob ta'minot". Toshkent, 2022, 141-bet
5. Tog'ay Murod xirgoyilari. Azim Ro'ziyev. Tog'ay Murod chizgan suratlar. www.ziyouz.com kutubxonasi
6. Dilmurod Quronov. Qalblarni larzaga solgan xirgoyi. "Hurriyat" gazetasi, 2007
7. Z. Suvonov. Tog'ay Murod nasrida obrazlar poetikasi: falsafa fanlari bo'yicha falsafa doktori ilmiy darajasini olish uchun yozilgan dissertatsiya. Toshkent-2019 14-bet